

“SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLARNING LINGVISTIK-SEMANTIK TAHLILI

Abduvaliyeva Kamola Shavkat qizi,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti
tel.: +998997961502
email: kamola.z@mail.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17317494>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asaridagi etnonimlar lingvistik va semantik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda asarda uchraydigan etnonimlar ikki asosiy guruhga – o‘z qatlamga mansub va o‘zlashma etnonimlarga ajratilib, ularning shakllanishi, semantik asoslari hamda tarixiy-lingvistik xususiyatlari yoritilgan. Maqolada etnonimlarning morfemik tuzilishi, fonetik o‘zgarishlari va semantik motivatsiyasi misollar asosida izohlanadi. “buzuq”, “uch o‘q”, “turqaq”, “xalaj” kabi o‘z qatlamga mansub etnonimlar tarixiy voqealar, ijtimoiy hodisalar va joy nomlari bilan bog‘lanib tahlil etilgan. Shuningdek, “do‘rman”, “burchigin”, “niyrun”, “barlas”, “arlat” kabi o‘zlashma etnonimlarning mo‘g‘ul tili bilan bog‘liqligi va ularning ma‘no qatlamlari ilmiy jihatdan izohlangan. Shuningdek, etnonimlarning etnotoponimlar bilan uzviy bog‘liqligi va ularning xalq tarixiy xotirasini aks ettiruvchi vosita sifatidagi roli alohida ta‘kidlangan.

Kalit so‘zlar: etnonim, “Shajarayi turk”, etnonimiya, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, turkiy va mo‘g‘ul tillari, semantik tahlil, etnotoponim

LINGUISTIC AND SEMANTIC ANALYSIS OF ETHNONYMS IN “SHAJARAYI TURK”

Abduvaliyeva Kamola Shavkat qizi
Doctoral Candidate, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
Tel.: +998 99 796 15 02
E-mail: kamola.z@mail.ru

Annotation. This article provides a linguistic and semantic analysis of ethnonyms found in Abulg‘ozi Bahodirxon’s work “Shajarayi Turk.” The study classifies the ethnonyms appearing in the work into two main groups – native and borrowed ethnonyms – and explores their formation, semantic bases, and historical-linguistic features. The article explains the morphemic structure, phonetic changes, and semantic motivation of these ethnonyms with illustrative examples. Native ethnonyms such as “Buzuq,” “Uch O‘q,” “Turqaq” and “Xalaj” are analyzed in connection with historical events, social phenomena, and place names. Likewise, the borrowed ethnonyms “Do‘rman”, “Burchigin”, “Niyrun”, “Barlas” and “Arlat” are examined in terms of their relation to the Mongolic language and their semantic layers. The article also emphasizes the close connection between ethnonyms and ethnonyms-derived toponyms (ethnotoponyms), highlighting their role as linguistic means reflecting the historical memory of the people.

Keywords: ethnonym, “Shajarayi Turk”, ethnonymy, native layer, borrowed layer, Turkic and Mongolic languages, semantic analysis, ethnonym-based toponym.

Til oldiga qo'yilayotgan yangi ijtimoiy, siyosiy va madaniy talablarni qondirishda etnonimiyaning o'z qatlamiga mansub birliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Til yangi tushuncha yoki voqelikni ifodalash zarurati tug'ilganda, avvalo o'z ichki imkoniyatlaridan foydalanadi. Shu jarayonda tarixan shakllangan turkiy ildizli etnonimlar alohida rol o'ynaydi. Ular nafaqat tilning boyishiga, balki o'zlashma etnonimlarning semantik va morfologik jihatdan moslashuviga ham xizmat qiladi. Natijada, til o'zlashgan birliklarni asta-sekin o'z qatlamiga singdiradi.

"Shajarayi turk" asaridagi etnonimlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan ikki asosiy guruhga ajratiladi:

O'z qatlamga mansub etnonimlar – asosan turkiy so'zlar asosida shakllangan, tarixan o'zbek tilida ishlatilgan va mahalliy muhitda avloddan avlodga o'tib kelgan nomlar.

O'zlashma qatlamga mansub etnonimlar – mo'g'il, arab, fors-tojik manbalaridan kirib kelgan, biroq o'zbek tiliga ma'lum darajada moslashgan yoki singib ketgan nomlar.

O'z qatlamga mansub etnonimlar o'zbek tili leksikasida qadimdan mavjud bo'lib, tilda mustahkam o'rin egallagan. Ular ko'pincha ma'lum hududlar bilan bog'liq bo'lib, toponimik tizimda ham aks etadi. Bunday nomlar til tarixi, etnolingvistika va dialektologiya uchun muhim manba hisoblanadi. Shu sababli, etnonimlar nafaqat geografik joylarni ifodalaydi, balki xalqning o'tmishi, tili, madaniyati va milliy o'zligini aks ettiruvchi tarixiy xotira vositasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tili taraqqiyoti jarayonida etnonimlarning shakllanishi va rivojlanishi, asosan, tilning ichki imkoniyatlariga tayanib kechgan. Bu jarayonda yangi etnonimlarning paydo bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, "Shajarayi turk" asarida keltirilgan etnonimlar misolida bu holat yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbek etnonimlari to'g'risida gap borganda, shuni aytish kerakki, respublika hududida tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq kabi xalqlarning urug'-aymoqlari ham bo'lganidan o'z-o'zidan ma'lumki, ana shu xalqlarning urug' nomlari bilan atalgan joylari ham bor¹.

Etnonimlar vaqt o'tishi bilan shaklini o'zgartirmagan holda ham turli obyektlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Bu esa etnik nomlarning nisbiyligi, ularning ijtimoiy va tarixiy sharoitlarga ko'ra yangi mazmun kasb etishidan dalolat beradi. Masalan, VII asrda turkiy xalqlardan biri bo'lgan bulg'orlar Bolqon yarim oroliga ko'chib o'tgan va ularning xoni slavyanlar yashaydigan hududda hokimiyat tepasiga kelgan. Vaqt o'tishi bilan bulg'orlar mahalliy slavyan aholi bilan aralashib ketgan bo'lsa-da, bu davlat "Bolgariya" nomi bilan atalgan. Bu holatda kelgindilarning etnik nomi mahalliy aholining umumiy etnonimiga aylangan. Shunga o'xshash holatni O'zbekiston hududida ham kuzatish mumkin². D. Nominxonovning ta'kidlashicha, XIII–XV asrlarda O'rta Osiyoda yashagan mo'g'ul urug' va qabilalarining nomlari keyinchalik mahalliy aholi – o'zbeklarning etnik nomlariga aylangan. Masalan, Mang'it, Jaloyir, Barlos, Qo'ng'iro't kabi etnonimlar dastlab mo'g'ul istilochilarining nomlari bo'lgan bo'lsa-da, ularning mahalliy aholiga singib ketishi natijasida o'zbek etnonimlariga aylangan. Bu esa tarixiy-etnik aralashuvning tabiiy natijasi sifatida qaraladi. D. Nominxonov ta'kidlagan ushbu holat "Shajarayi turk" asarida ham aniq ifodasini topgan bo'lib,

¹ Никонов В.А. Читателям. Этноними. – М.: Наука, 1970. – С.3–8.

² Қораев С. Этнонимика. – Т.: Ўзбекистон, 1979. – Б.10-11.

u turkiy va mo'g'ul etnonimlarining o'zaro bog'liqligini hamda ularning o'zbek tilidagi aksini o'rganishda muhim manba hisoblanadi³.

O'zbek xalqining ko'pdan ko'p urug'-qabilalari nomlarining bizgacha yetib kelishini nasabnomalarsiz, shajaralarsiz, Rashiddin, Abulg'oz Bahodirxon va boshqalarning tarixiy asarlarisiz, shuningdek rus olimlaridan N. V. Xanikov, A.P. Xroshkin, N.A. Aristov, D.N. Logofet, A. D. Grebenkin, V.V. Bartold, A.Y. Yakubovskiy, S.P. Tolstov, I.I. Magudovich, B.X. Karmishcheva, K.L. Zadixina, o'zbek olimlaridan K. Shoniyozov, B. Ahmedov, I. Jabborov, X. Doniyorov va boshqalarning ilmiy ishlarisiz tasavvur qilish qiyin⁴. X. Doniyorov o'z tadqiqotlarida "Shajarayi turk" asarida uchraydigan etnonimlarga alohida e'tibor qaratgan va ularning tarixiy-etnolingvistik qimmatini haqida mufassal tahlillar bergan⁵.

Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarayi turk" asari etnonimlardan mohirona va maqsadga muvofiq foydalanilgan noyob tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Asarda turli urug' va qabila nomlari tilga olinib, ular haqida aniq ma'lumotlar beriladi. Masalan, quyidagi parchada bir nechta urug' nomlari eslatib o'tilgan: *"Xonning ulug' otasi Bartanxondin tuqanlar manqitning yorimi va o'zga ellardin iki yuz evlik, yuz evlik, ellik evlik, o'n evlik, besh evlik qoldi. Manqitdin ko'chi yo'q erdi. Ul vaqtda manqitning xon qatinda qolg'anining boshi Qayuldar tegan erdi. Qatag'an va chiychut va jo'yrat va qiyot boshi butun tayjutg'a qo'shildi"*⁶.

Mazkur parchada tilga olingan *mang'it, qatag'an, chiychut, juyrat, qiyot, tayjut* kabi urug' nomlari o'zbek xalqi etnogenezida va tarixiy yodgorliklarda muhim o'rin tutadi. Bu etnonimlar nafaqat tarixiy voqealar bilan bog'liq, balki keyinchalik turli hududlarga nisbatan ishlatilgan toponimlar shaklida ham tilimizda saqlanib qolgan. Shunday qilib, "Shajarayi turk"dagi etnonimlar o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, ijtimoiy tarkibi va madaniy merosini o'rganishda beqiyos manba sifatida xizmat qiladi.

O'z qatlamga oid etnonimlar. "Shajarayi turk" asarida o'z qatlamga, ya'ni turkiy so'z qatlamiga mansub etnonimlar son jihatidan o'zlashma etnonimlarga nisbatan kamroq uchrasada, ular mazmunan boy va tarixiy-lingvistik jihatdan muhimdir. Asarda bunday etnonimlarning ma'nosi ko'pincha muallif tomonidan izohlangan, ayrim hollarda esa mo'g'ul tilidagi muqobillari bilan qiyoslab tushuntirilgan. Bu yondashuv o'sha davr til tafakkuri va leksik munosabatlarini o'rganishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

Asarda uchraydigan turkiy etnonimlarning morfemik va fonetik qiyofasi bugungi o'zbek tili me'yorlaridan biroz farq qiladi. Ba'zilarining tarkibi va shaklini esa hozirgi til doirasida etimologik jihatdan izohlash mumkin. Shu jumladan, fonetik jihatdan xiralashib ketgan va o'qilishi murakkab bo'lgan *turg'avut* etnonimi bunga misol bo'la oladi.

Masalan, *turg'avut* etnonimi haqida asarda quyidagi ma'lumot berilgan: *"Turg'avutning ma'nisi "ori yoq" temak bo'lur. Mo'g'ul yurtining narig'i chetini Salanga derlar. Bu ellar Salanganing ul yuzinda o'ltururlar erdi. Oning uchun turg'avut tedilar"*. Bu sharhdan ko'rinadiki, etnonim geografik joy nomi asosida hosil qilingan bo'lib, semantik asosini "nari yoq" (qarama-qarshi sohil) bildiruvchi ibora tashkil etgan.

³ Номинхонов С.Д. Монгольские дементи в этнонимике и Узбекистана. — Элиста, 1962. Вып.2. — С.260.

⁴ Қораев С. Этнонимика. — Т.: Ўзбекистон, 1979. — Б.10-11.

⁵ Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. — Тошкент, 1968.

⁶ Histoire des Mogols et des Tatares par Aboul-Ghazi Behadour Khan, publiee, traduite et annotee par le Baron Desmaisons. I. Texte. St. Petersburg, 1871. — Б. 49.

Yana bir guruh o'z qatlamga mansub etnonimlar bor-ki, ularning morfemik va fonetik tarkibida ba'zi o'zgarishlar yuz bergan bo'lsa-da, ularning semantik mazmunini anglash nisbatan oson. Quyida ana shunday etnonimlardan ayrimlariga to'xtalamiz:

Buzuq etnonimi: *"Siz uch ulug'ingiz oltun yoy topib kelturdingiz taqi oni buzub ulashtingiz. Sizlarning otingiz buzuq bo'lsun, sizlardin bo'lg'an o'g'lonlarni ham, to qiyomatg'acha buzuq tesunlar"*. Bu yerda "buzuq" so'zi "buzish" fe'lidan yasilib, tarixiy voqea bilan bog'liq tarzda urug' nomi sifatida mustahkamlangan.

Uch o'q etnonimi: *"Uch o'q kelturgan uch kichik o'g'lini va ondin bo'lg'anlarni bu kundan, to dunyo oxir bo'lg'uncha ucho'q tesunlar"*. Bu etnonim aniq voqea bilan bog'liq ravishda shakllangan bo'lib, ramziy va tarixiy xotira belgisi sifatida e'tibor qaratiladi.

Turqaq eli: *"So'ngaki ma'lum ermas, qaysi turkdin erkani. Ma'nisi "soqchi" temak bo'lur... Soqchilarning uyg'oq erkanin uxlamay o'lturg'ani uxlag'anig'a oytur erdi: "Maning navbatim bo'ldi. Emdi sen turqaq" – teb. Ul sababdin podshohni saqlag'an kishilarga turqaqlar derlar erdi"*. Bu nomning kelib chiqishi aniq emasligi qayd etilgan bo'lsa-da, "saqchi" ya'ni "qo'riqchi, nazoratchi" ma'nosiga ega bo'lgan so'z bilan bog'lanadi.

O'n uyg'ur, to'qqiz uyg'ur etnonimlari: *"O'n soyda o'lturg'anni o'n uyg'ur derlar erdi. To'quz soyda o'lturg'anni to'quz uyg'ur derlar erdi"*. Bu yerda toponimik asos bilan shakllangan etnonimlar mavjud bo'lib, ular yashash joylariga ko'ra nomlangan.

Xalaj etnonimi: *"Xon ul faqirg'a ot va ozuq berdi va mol berib: "Bu cherigga bormag'il, teb qol, och!" – tedi. Barcha qaloch eli shul kishining nasldin tururlar. Oni bu vaqtda xalaj deyurlar"*. Bu etnonim og'zaki buyruq ("qol, och!") asosida paydo bo'lganligini ifodalaydi, ya'ni nom ijtimoiy-hayotiy hodisaga bevosita bog'liq holda shakllangan.

Yuqoridagi misollar "Shajarayi turk"da keltirilgan turkiy (o'z qatlamga mansub) etnonimlarning qanday tarixiy, semantik, fonetik va morfemik asosda shakllanganini ko'rsatadi. Ularning ayrimlari zamonaviy o'zbek tilida fonetik jihatdan sezilmaydigan darajada o'zgarishga uchragan bo'lsa-da, semantik va kontekstual sharhlar orqali ular aniq identifikatsiya qilinadi. Bunday etnonimlar o'zbek tili tarixiy qatlamining muhim bir bo'lasi sifatida baholanadi.

O'zlashma qatlamga oid etnonimlar. "Shajarayi turk" asarida uchraydigan o'zlashma qatlamga mansub etnonimlar ham muhim lingvistik manba sifatida e'tiborga loyiqdir. Bu qatlamdagi etnonimlarning aksariyati mo'g'ul tiliga oid bo'lib, ular fonetik, morfologik va semantik jihatdan alohida xususiyatlarga ega. Bu holat nafaqat etnonimlarning shaklida, balki muallif tomonidan berilgan izohlarda ham yaqqol ko'rinadi.

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, ko'plab o'zlashma etnonimlarda ularning qaysi tildan olingani va ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri muallif tomonidan ko'rsatilgan. Agar bunday ma'lumot berilmagan bo'lsa, etnonim haqida ekskurs tarzida qo'shimcha izoh keltirilgan. Shu belgilar asosida asardagi o'zlashma etnonimlarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Mo'g'ul tiliga mansubligi eslatilib, ma'nosi sharhlangan etnonimlar. Bu guruhga kiruvchi etnonimlar asarda mo'g'ul tilidan olingani aniq ko'rsatilgan hamda ularning ma'nosi haqida muallif tomonidan etimologik izoh berilgan. Bunday etnonimlar tildagi o'zlashuv jarayonining tarixiy izlarini aks ettiradi va turkiy hamda mo'g'ul tillari o'rtasidagi leksik aloqalarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi misollar bunga yaqqol dalil bo'la oladi:

Do'rman: *"Mo'g'ul to'rtni do'rman der. Yot el bu yigitlarga do'rmanlar teb ot qo'ydilar. Ul to'rtisi o'ldi. O'g'lonlari qaytib, qarintoshlari ichiga keldilar"*. Bu yerda etnonim mo'g'ul tilidagi "to'rt" so'zining muqobili sifatida berilgan.

Burchigin (Qiyot): *"Yesugayning besh o'g'li balki naslining ko'pragi oq-sari, ko'zlari ashhal bo'ldi. Mo'g'ul ashholni burchig'in der. Oning uchun Yesugay bahodirning naslina burchig'in qiyot tedilar. Alanquva oytib erdi: " Mang'a kelib juft bo'laturg'an kishining rangi oq-sari, ko'zlari burchig'in"- teb"*. Bu izohda tashqi belgiga ko'ra etnik nom shakllangan.

Kilgit eli: *"Kishiningki tilinda kamligi bo'lsa, oni turk xalqi paltak der. Mo'g'ul kilgi der"*. Bu yerda "kilgi" so'zi til nuqsoniga ishora qiluvchi sifatida ishlatilgan.

Niyrun: *"Onlarg'a niyrun tedilar. Ma'nisi "sulbi pok" temak bo'lur. Turkiysi "oru tuxum" temak bo'lur"*. Ya'ni "sof nasl" ma'nosida.

Suqut eli: *"Onasi saqladi. O'g'long'a Suqut ot qo'ydilar. Mo'g'ul yulg'unni suqay der. "Yulg'unli" temak bo'lur"*. Bu yerda yulg'un daraxti bilan bog'liq nomlash asosga olingan.

Dug'lat urug'i: *"Mo'g'ul aqsaqni dug'lat der. Bir oyoqi aqsaq erdi. Barcha dug'lat uruqi oning nasli tururlar"*. Bu etnonim nom berilgan kishining jismoniy alohidaligiga asoslanadi.

2. Mo'g'ul tiliga mansubligi bevosita eslatilmagan, biroq ma'nosi sharhlangan etnonimlar. Bu guruhga kiruvchi etnonimlarda ularning mo'g'ul tiliga mansubligi aniq ko'rsatilmagan bo'lsa-da, asarda ular haqidagi semantik izohlar berilgan. Mazkur izohlar etnonimlarning kelib chiqishi, ma'no doirasi va tarixiy asoslarini aniqlashga yordam beradi. Shu bois, bu turdagi etnonimlar tildagi yashirin o'zlashuv jarayonlarini aniqlash hamda turkiy va mo'g'ul tillar o'rtasidagi tarixiy aloqalarni tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi.

Barlas eli: *"Oning o'g'lining oti Erdamchi barlas. Barcha barlas eli muning nasli tururlar. Aqsoq Temur ushbu uruqdin erdi. Barlasning ma'nisi "sipahsolor" temak bo'lur"*. Bu etnonim harbiy lavozimga asoslangan bo'lib, etnonimga aylangan.

Arlat eli: *"Oning ma'nisi "onaning sevar o'g'li" temak bo'lur. Arlat bir kishining oti turur. Oni onasi ko'p sevar erdi. Oning uchun Arlat tedilar. Barcha arlat eli oning nasli turur"*. Nom kishining shaxsiy holatiga asoslanib shakllangan.

Kirayt: *"Keroytning ma'nisi "qaroburan" temak bo'lur. Bir kishining yeti o'g'li bor erdi, yetisi ham qaro. Onlarg'a xalq keroytlar derlar erdi. Shundan tug'g'anlarg'a keroytlar tedilar"*. Rang asosida etnonim shakllangan.

Qiyot: *"Qayonning avlodi ko'p bo'ldi, Nukuzniki ondin oz bo'ldi. Qayon avlodina qiyot tedilar, Nukuz avlodina iki ot qo'ydilar. Bir nechagina nukuzlar tedilar va bir nechagina durlakan tedilar. Qayonning ma'nisi "selki, tog'din kuch birlan yildam quyig'a kelgay"*. Bu yerda kuchlilik va tezlik belgisi asosida nom hosil qilingan.

Qo'niqqimar: *"Qo'niqning ma'nisi "ulug'" temak bo'lur. Bu vaqtda ham ulug' qarg'ani qo'nik qarg'a derlar. Qimarning ma'nisi "burun" temak bo'lur"*. Bu etnonim ham shaxsiy tashqi belgi asosida yuzaga kelgan.

Yuqorida tahlil qilingan o'zlashma qatlamga oid etnonimlar "Shajarayi turk" asarida o'zining tarixiy, etnografik va lingvistik mohiyatiga ko'ra yuksak ilmiy qimmat kasb etadi. Ular orqali o'sha davrda etnik guruhlarining nomlanish mezonlari, tilshunoslikdagi nom yasash tamoyillari, shuningdek, turkiy va mo'g'ul tillari o'rtasidagi aloqalar yoritiladi. Ushbu etnonimlar nafaqat lug'aviy birliklar sifatida, balki tarixiy-etnik voqeliklarning til orqali aks etishiga misol bo'la oladi.

Bundan tashqari, ayrim urug' nomlarida bevosita shaxs nomi anglashsa-da, ularning asosida aynan shu shaxsning o'ziga xos fe'l-atvori, ijtimoiy mavqeyi yoki tarixiy voqea orqali shakllangan motivlovchi asos yotganligi kuzatiladi. Bunga "do'rman" urug'i misol bo'la oladi. Ushbu nomning kelib chiqishi bilan bog'liq rivoyatga ko'ra, mo'g'ul xalqidan bo'lgan Bichinqayon ismli podshohning kichik o'g'li Timach Merganni taxtga chiqarish rejalashtiriladi. Ammo bu taklif uning aka-ukalari tomonidan rad etiladi. *"Xalq ul to'rtining so'zlarin qabul qilmadilar. Aning uchun elga o'pkalab, yurtidan ketib, yot elning ichinna borib o'lturdilar"*⁷, – deb yoziladi manbada. Ya'ni Timach Mergan va uning tarafdorlari o'z yurtlarini tark etib, begona yurtda yashay boshlaydilar. Mahalliy aholi ularni "o'rman"lar deb ataydi. Oradan vaqt o'tib, bu to'rt kishi vafot etadi, ammo ularning o'g'illari ota yurtlariga qaytib kelib, qarindoshlari orasiga qo'shiladilar. Shu tariqa ularning avlodlari "do'rman" nomi bilan atalgan urug'ni tashkil qiladi. Bu yerda urug' nomining shakllanishida muayyan tarixiy shaxs (Timach Mergan) va uning hayoti bilan bog'liq ijtimoiy voqea asosiy motiv sifatida ishtirok etganini ko'rish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Shajarayi turk"dagi etnonimlar o'zbek tili leksik boyligining muhim qismini tashkil etib, til taraqqiyoti, etnolingvistika va tarixiy semasiologiya sohalarida bebaho manba sifatida xizmat qiladi. Bu asar orqali etnonimlarning kelib chiqishi, shakllanish sabablari va semantik tahlilini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki xalqning etnik-madaniy merosini anglashda ham alohida ilmiy ahamiyatga ega.

References:

1. Никонов В.А. Читателям. Этноними. – М.: Наука, 1970. – С.3–8.
2. Қораев С. Этнонимика. – Т.: Ўзбекистон, 1979. – Б.10-11.
3. Номинхонов С.Д. Монгольские дементи в этнонимике и Узбекистана. – Элиста, 1962. Вып.2. – С.260.
4. Қораев С. Этнонимика. – Т.: Ўзбекистон, 1979. – Б.10-11.
5. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент, 1968.
6. Histoire des Mogols et des Tatares par Aboul-Ghazi Behadour Khan, publiee, traduite et annotee par le Baron Desmaisons. I. Texte. St. Petersburg, 1871. – Б. 49.
7. Turibekov M. Shajarayi turk onomastikasi. – Т.: Nodirabegim, 2020. – Б. 61.

⁷ Turibekov M. Shajarayi turk onomastikasi. – Т.: Nodirabegim, 2020. – Б. 61.